

Tosheva Dildora Iskandarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsent, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
dildoratosheva82@gmail.com

Bozorova Marjona Hamid qizi

Buxoro davlat pedagogika
instituti pedagogik ta'lim kafedrası magistranti
marjonajahongir211@gmail.com

MILLIY TARBIYA TAMOYILLARIDA JADIDLAR MEROSINING AKS ETISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fani darslarida jadid ajdodlarimizning ma'naviy merosidan samarali foydalanish masalalari pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Jadid pedagoglari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarning tarbiya haqidagi qarashlari, ularning asarlarida ilgari surilgan pedagogik g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Maqolada ushbu merosni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash, tarbiya darsliklarini mazmunan boyitish, o'quvchilarda milliy g'urur, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishdagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, jadidlarning pedagogik merosidan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'z: Tarbiya, jadidchilik, ma'naviy meros, jadid ajdodlar, pedagogika, milliy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim, shaxs tarbiyasi.

ОТРАЖЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ В ПРИНЦИПАХ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются с педагогической точки зрения вопросы эффективного использования духовного наследия предков джадидов на уроках воспитательной науки. Взгляды таких просветителей, как джадидские педагоги-махмудходжа бехбуди, Абдулла авлони, мунавварқари абдурашидханов на воспитание, педагогические идеи, выдвинутые в их трудах, не утратили актуальности и сегодня.

В статье исследуется роль этого наследия в применении к учебно-воспитательному процессу, обогащении учебников по воспитанию содержанием, формировании у учащихся чувства национальной гордости, нравственных ценностей и социальной ответственности. Также приведены методические рекомендации по использованию педагогического наследия джадидов.

Ключевое слово: воспитание, джадидизм, духовное наследие, джадидистские предки, педагогика, национальные ценности, современное образование, воспитание личности.

REFLECTION OF THE HERITAGE OF JADIDS IN THE PRINCIPLES OF NATIONAL EDUCATION

Abstract. Three articles analyze the issues of effective use of the spiritual heritage of our ancestors in the lessons of education from a pedagogical point of view. The views of enlighteners such as Jadid educators - Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov - on education, the pedagogical ideas put forward in court cases have not lost their relevance today. The article studies the role of integrating this heritage into the educational process, enriching educational lessons in content, and instilling national pride, moral and emotional people and social responsibility in students. Methodological recommendations for the introduction of the pedagogical heritage of Jadids are also included.

Keywords: Education, Jadidism, spiritual heritage, Jadid ancestors, pedagogy, national values, modern education, personal upbringing.

Kirish. Inson paydo bo'libdiki, uning tarbiyasi doimiy ijtimoiy masala sifatida qarab kelinmoqda. Zero tarbiya shaxsning jamiyatning eng oliy a'zosi sifatida shakllantiradi. Bu haqida mashhur jadidlarimizdan biri Abdulla Avloniy : "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir",- deb aytgan edi.[4]

Haqiqatan ham, tarbiya bu - insonning hayot-mamotidir, kerak paytda unga najot bo'la oladigan eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Yoki yomon xulq egalari o'z tarbiyalari ortidan qandaydir

halokatga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun ham yosh bolalarga tarbiya berishda katta e'tibor talab etiladi. Yoshlarda jamiyatimiz g'oyalarining kuchiga ishonitirish, yangi jamiyat barpo etishda o'z hissarlarini qo'shishda yo'l ko'rsatish, ularning muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirib turish kerak.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri — shaxs tarbiyasida izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tamoillarni shakllantirishdir. Har bir pedagog yosh avlod qalbiga nur olib kiruvchi, ularning ichki dunyosini anglay oluvchi va hayotda o'z o'rnini topishda yo'l ko'rsatuvchi bo'lishi kerak. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida ham o'z o'rnini topishi zarur. Aynan tarbiya orqali bolada axloqiy qadriyatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulari, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, har bir bola shaxsini chuqur anglash, unga individual yondashish, o'ziga xosligini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaning samaradorligi, avvalo, ustozning ma'naviy yetukligi, shaxsiy namunasi va tarbiyaviy jarayonga bo'lgan mas'uliyatiga chambarchas bog'liqdir. Shu bois, pedagog kadrlar tayyorlashda tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratish, ular orasida pedagogik deontologiya xususiyatlarini mustahkamlash zaruratga aylanmoqda.

Zero, tarbiya bu — kelajakni yaratish san'atidir. Bu san'atda har bir harakat, har bir so'z va hatto har bir nigoh muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun yoshlar tariyasiga ajdodlar nigohi bilan qarash, ularning pur ma'no so'zlari va boy ma'naviy merosi bilan oziqlantirish, qolaversa ular bilan faxrlanish hissini shakllantirish ularda milliy tarbiyani tarkib toptirishdan iboratdi.

Shu o'rinda Milliy tarbiya konsepsiyasining maqsadlari haqida so'z yuritsak, eng asosiysi shuki-yosh avlodni mustaqil va baxtli hayotga tayyorlash, ularda zarur ijtimoiy fazilat va ko'nikmalarni izchil rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish ustuvor hisoblanadi:

- tarbiyani baholash va amalga oshirishning ilmiy asoslarini yaratish;
- tarbiyaning uzluksiz va bosqichma-bosqich tizimini shakllantirish;
- milliy va zamonaviy tarbiya yutuqlarini uyg'unlashtirish;
- tarbiyachilar malakasini oshirish;
- tarbiya jarayonida oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning hamkorligini ta'minlash.

Yuqoridagi ustuvor masalalarini amalga oshirish ta'lim tizimining har bir bo'g'iga tegishlidir, xususan umumta'lim maktablarida olib boriladigan tarbiya fani jarayonida keng tadbqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosi, shaxs rivojlanishi va kamolotining poydevoridir. Chunki tarbiyali va ma'rifatli insongina jamiyatda munosib o'rin topa oladi, hurmat va e'tiborga sazovor bo'ladi. Shu sababli bugungi kunda zamonaviy maktab oldiga har tomonlama yetuk komil shaxs, ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy kamolotga ega shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Chunonchi tarbiya va ta'limni bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Jadidlarning tarbiya haqidagi qarashlari islom dinida qadimdan qaror topgan odob –ahloq negizida shakllangan edi. Ularda bolalar diyonatli, sahovatli, xushaxloqli, xushmuomali bo'lishni ko'rmoqchi bo'lishgan.

Tarbiya fani darslarida jadid ajdodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, nafaqat o'quvchilarga tarixiy-ma'naviy bilim berish, balki ularning shaxsiy kamoloti, axloqiy mezonlari va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlarning pedagogik qarashlari bugungi tarbiya fanining g'oyaviy asoslaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Metodlar. Buyuk jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni odob-axloq, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Unda bu fazilatlarini barkamol inson tarbiyasining asosiy ko'rinishi sifatida ko'rsatadi. U axloqni nafaqat shaxsiy fazilat, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omili deb biladi. Ma'rifatparva olim o'z asarida shunday deydi: "Axloq – insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir bilimdir." [4] Xulqi odobi g'o'zal shaxs jamiyat belgilab bergan har bir talabni bajara oladi, u sifatli ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi, oilada va hatto hunar o'rganishda ham, kasb egallashda ham qunt va irodani qo'llay oladi. Ushbu g'oya bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ayniqsa umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Tarbiya" fanining mazmunida yaqqol ifodasini topgan.

Xususan, 5-sinf "Tarbiya" darsligida axloqiy qadriyatlar — odob, halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, milliy g'urur kabi tushunchalar asosida bolalarning ma'naviy olamini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu darslikda berilgan topshiriq va mashqlar, Avloniyning yuqoridagi fikriga hamohang tarzda, o'quvchilarda yaxshilikka intilish, yomonlikdan voz kechish, ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Avloniyning axloqqa bergan ta'rifi bugungi zamonaviy ta'lim mazmunida, ayniqsa tarbiya fanida, amaliy asosga ega bo'lib, yosh avlodni komil inson etib voyaga yetkazishda muhim rol o'ynamoqda. Ma'naviyat va axloqiy tarbiya masalasi har qanday jamiyatning taraqqiyoti va mustahkam poydevorini tashkil etadi. Abdulla Avloniy yaxshi xulqlar qatoriga matonat, diyonat, islomiyat, nazokat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, hilm, muhabbat, avf kabi fazilatlarni kiritadi. Bu xulqiy fazilatlar nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham zaruriydir. U kishining fikricha, inson bu kabi yaxshi fazilatlarni egallash orqali chinakam komil inson darajasiga erisha oladi.

Yaxshi xulqni shakllantirish esa o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun Avloniy yosh avlodga shunday amallarni bajarishni ta'kidlaydi:

-Ota-ona, muallim, ustozlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i bilan tinglab, doim xotirada tutmoq;

-Axloqi yaxshi kishilar bilan do'st tutinmoq, ulfat bo'lmoq;

-Axloqi buzuk, yomon kishilardan uzoq yurmoq, ularning ta'siriga tushmaslik kabilar.

Uning tarbiyaga doir fikrlari 8-sinf "Tarbiya" darsligida ham alohida urg'u bilan qayd etilgan. Zero, yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishi, avvalo, o'zida ezgulik, sabr, muhabbat, intizom kabi sifatlarni singdirishiga bog'liq. Avloniy ta'kidlaganidek, "Axloq tuzatilmasa, millat tuzalmaydi." [5]

Shunday ekan, biz – bugungi yoshlar – ota-onamiz, ustozlarimizning hikmatli nasihatlariga amal qilib, yaxshi axloqli insonlar bilan do'stlashmog'imiz, yomonlikdan, nopoklikdan yiroq bo'lmog'imiz zarur. Chunki axloq – bu insonning asl chehrasi, jamiyat oldidagi yuzidir.

Avloniyning shu kabi tarbiyaga oid fikrlari, asarlarida ifoda etilgan ibratli so'zlar qisqa va muammoli tarzda aks ettirilgan. Darslik mazmunini yanada boyitishda allomaning asarlarida ifoda etilgan qisqa hikoyalarni kiritish, ularni boshqotirma yoki topshiriqli shaklda berish ham maqsadga muvofiqdir.

Jadid ma'rifatparvarlardan yana biri millat farzandlarining taqdiriga befarq bo'lmagan ularni ilm ma'rifatga ezgulikka da'vat etuvchi buyuk shaxslardan yana biri bu Mahmudxo'ja Behbudiydir. U ham yoshlar tarbiyasi, odob-axloq va milliy uyg'onish g'oyalarini o'z aks ettirgan bir qancha asarlar yozgan. Uning "Risoi tarbiyat ul-atfol" (Bolalar tarbiyasi haqida risola) asari tarbiyaviy qarashlarini to'liq ifodalaydi. Unda: bolalarning axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiyasi haqida fikrlar bildirilgan, ota-onalarning va ustozlarning tarbiyadagi roli yoritilgan, yoshlarning to'g'ri odob-axloq asosida voyaga yetishi uchun amaliy maslahatlar berilgan.

Olimning 1911 yilda yozilgan "Padarkush" drammasi o'z davrida ota-onalarni farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, savotsizlikni oldini olish, jaholatga qarshi kurash kabi axloqiy tanazzul oqibatlarini ifoda etuvchi badiiy asar hisoblanadi. Adib yaratgan ilmiy meroslarda g'arblashishga mukkasidan ketgan, o'z milliy qadriyatlarini rad etgan yosh avlod qoralangan, ma'naviyatsizlik va axloqsizlikning halokatli oqibatlari ko'rsatilgan. Behbudiy o'zining "Taraqqiy", "Shuhrat", "Oyna" kabi gazetalaridagi maqolalarida: zamonaviy bilim olish, odob-axloq, tarbiya va madaniyat haqida doimiy targ'ibot olib borgan, yoshlarni jaholat va razolatdan asrab, ilmiy va axloqli bo'lishga da'vat etgan. Bu g'oyalar bugungi kunda "Milliy g'oya", "Odobnoma" va "Tarbiya" kabi fanlar orqali o'quvchilarga yetkazilmoqda.

Jadid ma'rifatchilarining oilaga, axloqiy tarbiyaga va jamiyat intizomiga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abdurauf Fitrat quyidagi fikrni ilgari surgan edi:

"Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi." Bu so'zlar o'zida chuqur pedagogik va ma'naviy mazmunni mujassam etgan bo'lib, zamonaviy tarbiya tizimida milliy va ma'rifiy qadriyatlarni uyg'unlashtirishning naqadar muhim ekanini yana bir bor eslatadi. Fitratning ushbu mulohazasi yosh avlodga nafaqat ilm, balki axloq, iymon va intizom ruhida tarbiya berish zarurligini asoslab beradi.

Jadidlar ilmiy merosi tarbiya darslarida "SWOT" tahlil qilinsan, dasturiy vositalar orqali, multimediya dasturlari orqali jonlangan tarix sifatida qo'llanilsa yosh avlodga yanada ta'sirli bo'lar edi.

Natijalar. Jadidlarning qarashlari islomiy-ma'rifiy asosga ega bo'lib, ularning pedagogik merosi yoshlarni diyonatli, sahovatli, vatanparvar, o'z millatiga sodiq bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Bunday qadriyatlar zamonaviy o'quvchilarda mustahkam ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi. Shu jihatdan, tarbiya fanining mazmuniga jadidlar merosini targ'ib qilish – uzluksiz ma'naviy tarbiyaning uzviy qismi bo'lishi lozim. Biroq bu borada muayyan muammolar ham mavjud: ba'zi hollarda o'qituvchilarning jadidlar merosini yetarli darajada o'rganmagani, metodik yondashuvlarning eskirganligi, dars jarayonida faqat nazariyaga tayanish kabi holatlar mavjud. Shu bois, metodik qo'llanmalar, amaliy dars ishlanmalari, interaktiv uslublar orqali bu merosni zamonaviy pedagogik talablarga muvofiq tatbiq etish zarur.

Jadid ajdodlarimizning ma'naviy va pedagogik merosi zamonaviy tarbiya fani uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning tarbiya haqidagi ilg'or qarashlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy barkamolligi va ma'naviy uyg'oqligini shakllantirishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Tarbiya darslarida ushbu merosdan foydalanish orqali:

- o'quvchilarda milliy g'urur va qadriyatlarga hurmat shakllanadi;
- shaxsiy mas'uliyat va jamiyat oldidagi burch hissi kuchayadi;
- yoshlar o'z tarixiga, ajdodlariga, tiliga va madaniyatiga nisbatan e'tiborli bo'ladi.

Kelgusida tarbiya fanining samaradorligini oshirish uchun jadidlarning asarlari asosida zamonaviy metodik tavsiyalar, vizual materiallar va dars ishlanmalari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash yo'lida muhim qadam bo'ladi. Shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechishni jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatishgan. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonishgan. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O'zbekistonda namoyon bo'lib turibdi.

Jadidlarning ilg'or fikrlari nafaqat ta'lim-tarbiya tizimida, balki jamiyatning barcha qatlamlarida uyg'unlik, islohot va taraqqiyot uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning "avvalo ma'rifat, so'ngra taraqqiyot" degan g'oyasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Xulosa. Bugungi tarbiya tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — yosh avlodga ma'naviy immunitetni shakllantirish, ularni xalqiga sadoqatli, yuksak ma'naviyatli shaxslar qilib voyaga yetkazishdir. Bu yo'lida jadidlarning asarlari, hayoti va faoliyati bebaho manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, tarbiya darslarida:

-jadidlar tomonidan ilgari surilgan adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik kabi g'oyalarni tahlil qilish;

-ularning asarlari asosida o'quvchilar bilan muhokama, bahs-munozaralar uyushtirish;

-vizual materiallar — suratlar, hujjatli filmlar, interaktiv dars vositalari orqali jadidlar merosini jonli va ta'sirchan yetkazish; kabi usullar tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, har bir hududdagi jadid namoyandalarning hayoti va faoliyatini o'rganish orqali mahalliy tarix va ma'naviyat bilan bog'langan, chuqur ildiz otgan tarbiya tizimini yo'lga qo'yish mumkin. Bu esa yoshlarning o'z shaxsiyati va identitetini anglashiga, o'zlikni topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu boisdan, bugungi o'zbek tarbiyachisi jadidchilik harakati mohiyatini chuqur anglab, uni yangicha metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodga chuqur ma'naviy-axloqiy bilim berishi lozim. Jadidlar boshlab bergan islohot yo'li – bu aslida komil insonni shakllantirish yo'lidir. Ularning hayoti, asarlari va merosi zamonaviy tarbiyada ibrat manbaiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422 sonli Qarori.06.06.2020 y

3. Mirziyoyev Sh.M. «Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» // Videoselektor yig'ilishidagi nutq. – 15 iyun, 2017 yil./ <https://www.Google.com>

4. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq T. O'qituvchi nashriyoti. 1998.3 bet.

5. Mahmudxo'ja Behbudiyning Yoshlarga bag'ishlangan maqolasi. «Oyna» jurnali, 1914 yil, 21-son, 390—391-betlar.